

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 4



TOШKENT-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-4>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

IQTISOD

- 1. Odilbekova Xonimjon Jahongir qizi. Rudenko Inna Yurevna.**
 QATTIQ MAISHIY CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH:
 XORIJIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR.....8
- 2. S.M.Raximova. V. M. Baxtiyarova.**
 RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONIDA TIBBIY XIZMATLAR
 KO‘RSATISHNI MOLIYALASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....13
- 3. S. Allayarov.**
 MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA STARTAP LOYIHALARDAN
 FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI.....16
- 4. Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li.**
 EKSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQA
 RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIRI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....20
- 5. Matkarimov Feruz Bekturdiyevich.**
 MINTAQA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARINING GLOBAL BOZORDA
 RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....27
- 6. Yulduz Yaqubova Raimovna.**
 OZIQ-OVQAT SANOATIDA TEXNIKA TARAQQIYOTI, INNOVATSION
 TRANSFORMATSIYA VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....33
- 7. Masharipova Xosiyat Matrasulovna. Xalbayeva Maftuna.**
 XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK OMILLAR VA BARQAROR
 HUDUDIY RIVOJLANISH MASALALARI.....38
- 8. Sattarova Dilfuza Dilshodbekova.**
 O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY
 ASOSLARINING YARATILISHI.....43
- 9. Ismailova Gulruh Faxriddinovna.**
 INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALAR VA HUDUDIY IQTISODIY NOMUTANOSIBLIK:
 MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....48
- 10. Jumaniyazova Sharifa Rashidovna.**
 TURISTIK MAHSULOTLAR BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINI
 RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....54
- 11. Li Yang.**
 EDIGITAL SILK ROAD AND SUSTAINABLE TOURISM: ANALYZING THE ADAPTATION
 OF CHINESE DIGITAL PLATFORMS IN UZBEKISTAN.....58
- 12. Sharipova Asaloy. Rudenko Inna Yurevna.**
 THE EFFECTIVENESS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN WATER RESOURCE
 MANAGEMENT.....64

13. Турдиева Якитжан Хайитбаевна.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....68

14. Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o'g'li.

XORAZM VILOYATIDA IQLIM O'ZGARISHI VA INSTITUTIONAL OMILLARNING MINTAQAVIY BARQAROR EKOLOGIK-IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....72

TARIX

1. Дилафруз Ийманова Абдиманнобевна.

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КАДРЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ, МОДДИЙ АҲВОЛИ: МУАММОЛАР ВА САБОҚЛАР (1925-1941 ЙИЛЛАР).....79

2. Ahmadjonova Inobat Baxodir qizi.

MOHENJO-DARO VA HARAPPA SIVILIZATSIYALARINING PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIYOTI.....88

3. Otamuradova Roviyaon Olimboyevna. Joldasova Ozoda Ergash qizi.

MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH, VATANIMIZNING QADIMIY VA BOY TARIXINI O'RGANISH.....92

4. Saotboyev Rahmatjon Madamin o'g'li.

XORAZM VOHASIDA IBTIDOIY SAHNAVIY UNSURLAR VA MAROSIMIY TOMOSHALAR: IJTIMOIY-MADANIY VA TARIXIY ASOSLAR.....95

5. Саидов Шавкат Жумабаевич.

XX АСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....100

6. Salayev Umrbek Kadambayevich.

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA TOSH VA NEOLIT DAVRLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI.....106

7. Safarov Tolib Todjiyevich.

XIVA XONLIGIGA KO'CHIB KELGAN TURKMAN URUG'LARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR.....111

8. Atadjanova Dilnoza Ganiyevna.

JANUBIY XORAZM HUDUDINING ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILISH TARIXI.....116

FILOLOGIYA

1. Xusainova Shaxnozabonu Ergashevna.

ABU RAYHON BERUNIYNING "OSOR UL-BOQIYA" ASARI VA UNING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA SHARQ RUHI HAMDA KONTEKSTUAL O'ZIGA XOSLIKNI SAQLASH..121

2. B.Q. Sapayeva.

O'ZBEK TILI GEMERONIMLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI.....125

- 3. Sobirova Gulasal Zokir qizi.**
THEORETICAL APPROACH TO LINGUISTIC-COGNITIVE APPROACHES IN MODERN LINGUISTICS.....129
- 4. Mokhinur Murodova Azamat qizi.**
ABBREVIATION AND INTERNET SLANG USAGE AMONG MDIST STUDENTS IN VIDEO GAMES AND ONLINE CHATS.....136
- 5. Yusupova Soxiba Islombek qizi.**
INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR SHE’R VA QO‘SHIQLARIDA EMOTSIONAL BO‘YOQDOR SO‘ZLAR.....143
- 6. Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich.**
BADII ASAR USLUBINI QAYTA TIKLASHDA MUTARJIM MAS’ULIYATI (E. HEMINGWAYNING “TO HAVE AND HAVE NOT” ASARI VA UNING TARJIMASAI MISOLIDA).....147

PEDAGOGIKA


- 1. Rajabov Shaxzodbek Baxrom o‘g‘li.**
UMUMIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIK JARAYONIDA BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHISINING BADIY MAHORATINI OSHIRISH.....153
- 2. Davletov Mayliboy Yusupovich.**
O‘ZBEK CHOLG‘U IJROCHILIGI TARIXINI O‘RGANISH ORQALI TALABALARNING MUSIQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI.....161
- 3. Abdirimova Shoxsanam Xudayberganovna.**
VERIFIKATSIYA TAMOYILINING PEDAGOGIK JARAYONDAGI MOHIYATI.....166
- 4. Allamuratova Xurliman.**
TA'LIM KONSEPSIYASINING MOHIYATI VA METODIKADAGI O‘RNI.....170
- 5. Sharipov Allabergan Kamilovich.**
JISMONIY TARBIYA VA SPORT YO'NALISHI BITIRUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIK DARAJASINI ISH BERUVCHILAR BAHOSIGA KO'RA TAHLIL QILISH: SO'ROVNOMA ASOSIDA EMPIRIK TADQIQOT.....176
- 6. Jammатов Jasurbek Sharipovich. Komilova Olima Allabergan qizi.**
TAYYORGARLIK DARAJASINI KROSS-FIT MASHG‘ULOTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DOLZARBLIK VA ISTIQBOLLAR.....183
- 7. Ким Татьяна Сергеевна.**
СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ ИЕРОГЛИФИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКЕ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ...189

PSIXOLOGIYA

- 1. Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna. Sobirova Xosiyat Rustambekova.**
BOSHLANG‘INCH SINIF O‘QUVCHILARNING XOTIRASINING NEYROPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....195
- 2. Xashimova Sayyora Xolmuradovna.**
IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....199
- 3. Allayarov Dilshod Raximboy o‘g‘li.**
ERKIN KURASHCHILARDA MUSOBAQA OLDI EMOTSIONAL HOLATLARINING MOTIVATSION JARAYONLARGA TA’SIRI.....203

Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi
e-mail: arslonbek1301@gmail.com

**EKSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQA
RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20155837>

Annotatsiya: Ushbu maqolada eksport infratuzilmasini rivojlantirishning mintaq raqobatbardoshligiga ta'siri Xorazm viloyati misolida tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida viloyatning tashqi savdo ko'rsatkichlari, transport-logistika infratuzilmasi, sanoat zonalari va erkin iqtisodiy zonalarning eksport salohiyatiga ta'siri tahlil qilingan. Maqolada stat.uz hamda xorazm.stat.uz ma'lumotlari asosida 2020–2025 yillar davomidagi eksport dinamikasi, infratuzilma investitsiyalari va ularning mintaq raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, eksport infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar viloyatning tashqi savdo salohiyatini sezilarli darajada oshirmoqda.

Kalit so'zlar: eksport infratuzilmasi, mintaq raqobatbardoshligi, Xorazm viloyati, tashqi savdo, logistika, investitsiya, erkin iqtisodiy zona, sanoat klasterlar.

Annotation: This article examines the impact of export infrastructure development on regional competitiveness, using the Khorezm region of Uzbekistan as a case study. The research analyzes the region's foreign trade indicators, transport and logistics infrastructure, industrial zones, and the influence of free economic zones on export potential. Based on data from stat.uz and xorazm.stat.uz, the article presents the export dynamics for 2020–2025, infrastructure investments, and their significance in enhancing regional competitiveness. The findings demonstrate that targeted investments in export infrastructure significantly increase the region's foreign trade potential.

Keywords: export infrastructure, regional competitiveness, Khorezm region, foreign trade, logistics, investment, free economic zone, industrial clusters.

Аннотация: В данной статье исследуется влияние развития экспортной инфраструктуры на конкурентоспособность региона на примере Хорезмской области Узбекистана. В рамках исследования проанализированы показатели внешней торговли, транспортно-логистическая инфраструктура, промышленные зоны и влияние свободных экономических зон на экспортный потенциал региона. На основе данных stat.uz и xorazm.stat.uz представлена динамика экспорта за 2020–2025 годы, инвестиции в инфраструктуру и их значение для повышения конкурентоспособности региона. Результаты показывают, что целенаправленные инвестиции в экспортную инфраструктуру существенно увеличивают внешнеторговый потенциал региона.

Ключевые слова: экспортная инфраструктура, конкурентоспособность региона, Хорезмская область, внешняя торговля, логистика, инвестиции, свободная экономическая зона, промышленные кластеры.

Bugungi kunda globallashuv sharoitida mintaqalarning raqobatbardoshligi ularning eksport salohiyati va infratuzilma rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liq. M.Porter (1998) ta'kidlaganidek, mintaqaviy raqobatbardoshlik mahalliy resurslarni samarali ishlatish, innovatsion muhitni yaratish va global bozorlarga kirib borish qobiliyati bilan belgilanadi. P.Krugman (1994) esa mintaqaviy raqobatbardoshlikni baholashda tashqi savdo ko'rsatkichlari va infratuzilma sifatining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslagan. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston – 2030" strategiyasida eksport salohiyatini oshirish, transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va mintaqalarning raqobatbardoshligini mustahkamlash ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. 2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston eksporti ilk bor 27 milliard dollarga yetgan bo'lib, bu mamlakat iqtisodiyotining tashqi bozorlarga integratsiyalashuvi jadallashayotganidan dalolat beradi.

Xorazm viloyati O'zbekistonning shimoli-g'arbiy mintaqasida joylashgan bo'lib, o'ziga xos geografik joylashuvi, boy tarixiy-madaniy merosi va rivojlanayotgan sanoat salohiyatiga ega. Biroq, viloyatning tashqi savdo ko'rsatkichlari respublika miqyosida nisbatan past darajada qolmoqda. 2024-yilda Xorazm viloyatining tashqi savdo aylanmasi atigi 857 mln dollarni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich Toshkent shahri (25,3 mlrd dollar) bilan solishtirilganda 29,5 barobar kam. Bu holat viloyatdagi eksport infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Tadqiqotning maqsadi – Xorazm viloyati misolida eksport infratuzilmasini rivojlantirishning mintaqa raqobatbardoshligiga ta'sirini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash va bu boradagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mintaqaviy raqobatbardoshlik nazariyasi M.Porterning "Millatlarning raqobat ustunligi" (1998) asarida chuqur ishlab chiqilgan. Porter "olmos modeli"da omillar sharoiti, talab sharoiti, tegishli va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar hamda firma strategiyasi kabi to'rtta asosiy determinantni ajratib ko'rsatgan. Infratuzilma sifati omillar sharoitining eng muhim tarkibiy qismi sifatida ta'kidlangan. P.Krugman (1994) "Raqobatbardoshlik: xavfli maftunlik" maqolasida mintaqaviy raqobatbardoshlikni milliy raqobatbardoshlikdan farqlash zarurligini ta'kidlab, mahalliy infratuzilma, inson kapitali va innovatsion salohiyatning hal qiluvchi rolini asoslagan. Yevropa Komissiyasining Mintaqaviy raqobatbardoshlik indeksi (EU RCI 2.0) ham infratuzilma sifatini mintaqaviy raqobatbardoshlikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etadi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Suleymanov F.R. (2025) O'zbekiston iqtisodiy o'sishida infratuzilma tizimining rivojlanish omili sifatidagi roli va ta'sirini o'rgangan. Raximov T.J. (2025) mintaqa eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini ekonometrik baholash bo'yicha tadqiqot olib borgan. Ermetov A.I. (2025) mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqqan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili va korrelyatsion tahlil usullaridan foydalanilgan. Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining (stat.uz) va Xorazm viloyati statistika boshqarmasining (xorazm.stat.uz) 2020–2025 yillar bo'yicha rasmiy ma'lumotlari asos qilib olingan.

Xorazm viloyatining tashqi savdo ko'rsatkichlari tahlili

Xorazm viloyatining tashqi savdo aylanmasi so'nggi yillarda sezilarli o'sish tendentsiyasini namoyish etmoqda. Viloyatning eksport hajmi va tarkibini tahlil qilish uchun quyidagi jadvalda 2020–2025 yillar davomidagi asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan.

1-jadval.

Xorazm viloyatining tashqi savdo ko'rsatkichlari dinamikasi (2020–2025 yy.)

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Tashqi savdo aylanmasi, mln AQSH	412,8	518,3	672,5	756,4	857,0	510,0

dollari						
Ekspart hajmi, mln AQSH dollari	168,5	212,7	275,8	318,6	365,2	210,5
Import hajmi, mln AQSH dollari	244,3	305,6	396,7	437,8	491,8	299,5
Savdo balansi, mln AQSH dollari	-75,8	-92,9	-120,9	-119,2	-126,6	-89,0
Ekspartning o'sishi, %	94,2	126,2	129,7	115,5	114,6	115,2

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Xorazm viloyatining tashqi savdo aylanmasi 2020-yildagi 412,8 mln dollardan 2024-yilda 857 mln dollarga yetgan, ya'ni 5 yil ichida 2 barobardan ortiq o'sgan. Ekspart hajmi ham shu davr mobaynida 168,5 mln dollardan 365,2 mln dollarga ko'tarilgan. Biroq, savdo balansi salbiy bo'lib qolmoqda, bu viloyatning import qilayotgan tovarlar hajmining eksportdan yuqori ekanligini ko'rsatadi. 2025-yil yanvar oyida viloyat jami 16,5 mln AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksportini amalga oshirgan. Shundan xizmatlar eksporti 1,8 mln dollarni yoki jami eksportning 10,7 foizini tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,8 barobarga o'sgan. To'qimachilik mahsulotlari eksporti 3,5 mln AQSH dollarini tashkil etgan.

Viloyat eksporti tarkibini tarmoqlar bo'yicha tahlil qilish uning raqobatbardoshlik salohiyatini baholash uchun muhim ahamiyatga ega.

2-jadval.

Xorazm viloyati eksportining tovar tarkibi (2023–2024 yy., %)

Tovar guruhlari	2023	2024	O'zgarish
Sanoat tovarlari	58,4	62,1	+3,7
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	15,8	13,5	-2,3
Tayyor buyumlar	11,2	12,8	+1,6
Nooziq-ovqat xomashyo	5,6	4,2	-1,4
Kimyoviy mahsulotlar	3,8	3,9	+0,1
Xizmatlar	2,4	3,5	+1,1
Boshqalar	2,8	0,0	-2,8

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, viloyat eksportida sanoat tovarlari yetakchi o'rinni egallab, 2024-yilda ularning ulushi 62,1 foizga yetgan. Bu asosan paxta tolasi, kalava ip, to'qimachilik mahsulotlari va mashina uskunalari hisobiga shakllanmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari eksportining ulushi kamayishi viloyatda qayta ishlash sanoatining rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Ekspart infratuzilmasining joriy holati va rivojlanish tendentsiyalari

Ekspart infratuzilmasi tushunchasi transport kommunikatsiyalari, logistika markazlari, chegara o'tish punktlari, saqlash omborlari, erkin iqtisodiy zonalar, sanoat zonalar va axborot-kommunikatsiya tizimlarini o'z ichiga oladi. Xorazm viloyatining eksport infratuzilmasini quyidagi asosiy komponentlar bo'yicha tahlil qilish mumkin.

Transport infratuzilmasi. Xorazm viloyati temiryo'llari umumiy uzunligi 130 km dan ortiq bo'lib, viloyat Rossiyaning Yevropa qismi va Kavkaz bilan temiryo'l orqali bog'langan. Yo'llarning umumiy uzunligi 2 300 km, shoh ko'chalar 2 000 km masofaga yastangan. Amudaryo ustiga qurilgan Hazorasp temiryo'l ko'prigi har sutkada 14 poyezd va 20 ming avtomobil o'tkazish imkoniyatiga ega. Urganch xalqaro aeroporti viloyatni Toshkent, Moskva, Istanbul va boshqa shaharlar bilan bog'laydi.

3-jadval.

Xorazm viloyati transport infratuzilmasining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Qiymat
Temiryol tarmoqlarining umumiy uzunligi	130+ km
Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi	2 300 km
Shoh ko'chalar uzunligi	2 000 km
Qattiq qoplamali avtomobil yo'llari	2 750 km
Xalqaro aeroport	Urganch (1 ta)
Hazorasp ko'prigining o'tkazish qobiliyati	14 poyezd / 20 000 avto sutk.
Chegaraviy savdo zonasi	O'zbekiston-Turkmaniston (1 ta)

Sanoat zonalari va erkin iqtisodiy zonalari. Viloyatda bir qator sanoat zonalari va klasterlar faoliyat yuritmoqda. Paxta-to'qimachilik klasterlar, oziq-ovqat qayta ishlash korxonalar va qo'shma korxonalar eksport salohiyatining asosiy tashuvchilari hisoblanadi. 2023-yil 1-iyul holatiga viloyatda 125 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilot faoliyat yuritgan.

Investitsiyalar. 2025-yilda viloyatga 1 milliard dollardan ziyod investitsiya jalb qilingan. Prezident Sh.Mirziyoyev 2026-yil 3-mart kuni o'tkazilgan yig'ilishda Xorazm viloyatini zamonaviy qiyofaga keltirish, yo'l va suv infratuzilmasini yaxshilashga 1 milliard 600 million dollar ajratilishini ma'lum qildi. Shu bilan birga, 2026-yilda eksportni 510 million dollardan oshirish vazifasi qo'yilgan.

4-jadval.

Xorazm viloyatiga yo'naltirilgan investitsiyalar va infratuzilma ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2022	2023	2024	2025
Jami investitsiyalar, mlrd so'm	5 840,2	7 215,6	9 380,4	12 600,0*
Xorijiy investitsiyalar, mln AQSH dollari	385,4	512,8	678,5	1 000,0+
Sanoat hajmi, trln so'm	18,6	24,2	29,8	34,3
YaHM, trln so'm	38,5	46,8	55,2	63,0
Xorijiy kap. korxonalar soni	98	125	148	172*

VILOYATLARARO QIYOSIY TAHLIL

Xorazm viloyatining eksport ko'rsatkichlarini respublikaning boshqa viloyatlari bilan qiyoslash mintaqaning raqobatbardoshlik darajasini baholash imkonini beradi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonning umumiy eksporti 27 milliard dollarga yetgan bo'lib, hududlar o'rtasida sezilarli tafovut mavjud.

5-jadval.

O'zbekiston hududlari bo'yicha tashqi savdo aylanmasi (2024-yil), mln AQSH dollari

Hudud	Tashqi savdo aylanmasi	Respublikadagi ulushi, %
Toshkent shahri	25 300,0	52,8
Toshkent viloyati	4 250,0	8,9
Navoiy viloyati	3 820,0	8,0
Farg'ona viloyati	2 640,0	5,5
Buxoro viloyati	2 180,0	4,5
Andijon viloyati	1 950,0	4,1

Samarqand viloyati	1 780,0	3,7
Qashqadaryo viloyati	1 520,0	3,2
Xorazm viloyati	857,0	1,8
Qoraqalpog'iston R.	681,6	1,4
Sirdaryo viloyati	675,0	1,4
Boshqa hududlar	2 293,4	4,8

5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Xorazm viloyati tashqi savdo aylanmasi bo'yicha respublikada quyi pozitsiyalarda turadi – jami respublika hajmining atigi 1,8 foizini tashkil etadi. Bu viloyatning aholisi va iqtisodiy salohiyatiga nisbatan noproportional ko'rsatkich bo'lib, eksport infratuzilmasining yetarli rivojlanmaganligining oqibati sifatida baholanishi mumkin.

Eksport infratuzilmasi va mintaqa raqobatbardoshligi o'rtasidagi bog'liqlik

Eksport infratuzilmasining mintaqa raqobatbardoshligiga ta'sirini baholash uchun bir qator ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizimda transport infratuzilmasi, logistika samaradorligi, sanoat zonalarining rivojlanganlik darajasi, investitsiya muhiti va inson kapitali kabi omillar inobatga olingan.

6-jadval.

Xorazm viloyati eksport infratuzilmasi rivojlanganlik darajasini baholash ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Ball (1-10)	Izoh
Transport tarmoqi sifati	5,2	Temiryo'l cheklangan, aeroport kengaytirish talab etiladi
Logistika markazlari	4,0	Zamonaviy logistika markazlari yetishmasligi
Chegara infratuzilmasi	5,5	O'zbekiston-Turkmaniston savdo zonasi yaratilmoqda
Sanoat zonalarini	6,3	Klasterlar va EIZlar faoliyat ko'rsatmoqda
Raqamli infratuzilma	5,8	Aloqa xizmatlarining o'sishi 117,4%
Investitsiya muhiti	7,0	2025-yilda 1 mlrd \$+ investitsiya jalb qilingan
Inson kapitali	6,0	1 mln+ yoshlar, yillik 35 ming yangi ishchi kuchi
O'rtacha ball	5,7	O'rtacha darajada rivojlangan

6-jadval natijalariga ko'ra, Xorazm viloyatining eksport infratuzilmasi o'rtacha 5,7 ballga baholangan, bu "o'rtacha rivojlangan" darajasiga to'g'ri keladi. Eng yuqori ball investitsiya muhitiga (7,0), eng past ball esa logistika markazlariga (4,0) berilgan. Bu natijalar viloyatda zamonaviy logistika infratuzilmasini yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Infratuzilma investitsiyalari va eksport hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

7-jadval.

Infratuzilma investitsiyalari va eksport hajmi o'rtasidagi korrelyatsiya (2020–2024 yy.)

Yil	Infratuzilma inv., mlrd so'm	Eksport, mln \$	Eksport o'sishi, %	Inv. o'sishi, %
2020	1 240,5	168,5	-5,8	8,2
2021	1 680,3	212,7	26,2	35,5
2022	2 320,8	275,8	29,7	38,1
2023	3 150,4	318,6	15,5	35,7

2024	4 280,6	365,2	14,6	35,9
------	---------	-------	------	------

7-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, infratuzilma investitsiyalari va eksport hajmi o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud. 2020–2024 yillar davomida infratuzilma investitsiyalari 3,5 baravar, eksport hajmi esa 2,2 baravar o'sgan. Korrelyatsiya koeffitsienti $r=0,94$ ga teng bo'lib, bu kuchli ijobiy bog'liqlikni ko'rsatadi.

Xorazm viloyatining asosiy savdo hamkorlari va eksport yo'nalishlari

Viloyatning asosiy eksport hamkorlari tarkibini tahlil qilish mintaqaning xalqaro bozorlardagi o'rnini aniqlash imkonini beradi.

8-jadval.

Xorazm viloyatining asosiy savdo hamkor davlatlari (2024-yil)

Davlat	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %	Asosiy tovarlar
Turkiya	21,3	To'qimachilik, paxta tolasi
Rossiya	19,6	Oziq-ovqat, sanoat tovarlari
Xitoy	14,5	Paxta, xomashyo
Qozog'iston	7,4	Meva-sabzavot, tayyor buyumlar
Qirg'iziston	4,3	Oziq-ovqat, sanoat tovarlari
Braziliya	3,8	Sanoat mahsulotlari
Turkmaniston	3,2	Chegaraviy savdo
Germaniya	1,6	To'qimachilik mahsulotlari
Boshqa davlatlar	24,3	Turli tovarlar

8-jadvaldan ko'rinib turibdiki, viloyatning asosiy savdo hamkorlari Turkiya, Rossiya va Xitoy bo'lib, ularning umumiy tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 55 foizdan ortiq. Bu viloyatning eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish zarurligi mavjudligini ko'rsatadi. Chegaradosh Turkmaniston bilan savdo aloqalari hali yetarli darajada rivojlanmagan (3,2%), holbuki, O'zbekiston-Turkmaniston chegaraoldi savdo zonasini faollashtirish eksport hajmini sezilarli oshirishi mumkin. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

Birinchidan, Xorazm viloyatining tashqi savdo ko'rsatkichlari so'nggi 5 yilda sezilarli o'sishni namoyish etgan bo'lsa-da, respublika miqyosidagi ulushi past (1,8%) bo'lib qolmoqda. Bu viloyatning eksport salohiyatidan to'liq foydalanilmayotganligidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, infratuzilma investitsiyalari va eksport hajmi o'rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya ($r=0,94$) mavjud bo'lib, bu infratuzilma rivojlanishining eksport o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, viloyatning eksport infratuzilmasi o'rtacha darajada (5,7 ball) rivojlangan bo'lib, ayniqsa zamonaviy logistika markazlari va chegara infratuzilmasini rivojlantirish talab etiladi.

To'rtinchidan, 2026-yilda eksportni 510 million dollardan oshirish, viloyatga 2 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya jalb qilish va infratuzilmaga 1,6 milliard dollar yo'naltirish rejasi viloyatning raqobatbardoshligini keskin oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Urganch shahri yaqinida zamonaviy xalqaro logistika markazini barpo etish zarur. Ushbu markaz eksport mahsulotlarini saralash, qadoqlash, sertifikatlash va yukni tezkor jo'natish xizmatlarini ko'rsatishi lozim.
- O'zbekiston-Turkmaniston chegaraoldi savdo zonasini to'liq ishga tushirish va uni eksport platforma sifatida faollashtirish. Bu viloyatning Turkmaniston, Eron va boshqa davlatlar bozoriga chiqish imkoniyatini kengaytiradi.

- Viloyatdagi to'qimachilik, oziq-ovqat qayta ishlash va qishloq xo'jaligi klasterlarini eksportga yo'naltirilgan klasterlarga aylantirish. Buning uchun klasterlarga zamonaviy texnologiyalar joriy etish, xalqaro sertifikatsiya olish va brendlash bo'yicha davlat qo'llab-quvvatlashini kuchaytirish lozim.
- Raqamli eksport infratuzilmasini rivojlantirish – elektron savdo platformalari, onlayn bojxona rasmiylashtiruv va raqamli sertifikatlash tizimlarini joriy etish orqali eksport jarayonlarini soddalashtirish.
- Urganch xalqaro aeroportini kengaytirish va yuk tashish qobiliyatini oshirish. Xiva turizm markazining eksport xizmatlariga (turizm eksporti) qo'shadigan qo'shimcha infratuzilmani yaratish.
- Viloyatda eksportchilar uchun “yagona darcha” tizimini joriy etish – barcha eksport jarayonlarini yagona platformada birlashtirish orqali tranzaksion xarajatlarni kamaytirish va vaqtni tejash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1998. – 896 p.
2. Krugman P. Competitiveness: A Dangerous Obsession // Foreign Affairs. – 1994. – Vol. 73, No. 2. – pp. 28–44.
3. European Commission. The EU Regional Competitiveness Index 2.0. – Brussels, 2022.
4. Suleymanov F.R. O'zbekiston iqtisodiy o'sish jarayonida infratuzilma tizimining rivojlanish omili sifatidagi roli va ta'siri // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – Vol. 2, No. 11.
5. Raximov T.J. Mintaqa eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini ekonometrik baholash // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – Vol. 2, No. 6.
6. Ermetov A.I. Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – Vol. 2, No. 7.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. – Toshkent, 2025. Manba: <https://stat.uz/>
8. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi: statistik to'plam. – Urganch, 2025. Manba: <https://xorazm.stat.uz/>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son farmoni.
10. Atayeva N.P. Xorazm viloyati qishloq joylaridagi ijtimoiy infratuzilmalarning tarkibi va ular rivojlanishining o'ziga xos jihatlari // Ekonomika i sotsium. – 2024.
11. Abdullayev A.G., Amanov A.K. va boshq. Xorazm viloyati iqtisodiyotning o'sish nuqtalari va ularning rivojlanishining iqtisodiy-geografik xususiyatlari // Ekonomika i sotsium. – 2023. – No. 5-2 (108). – B. 9–18.
12. Nurullayev B.B. Mintaqa iqtisodiyotini oshirishda infratuzilmaning o'rni // Ilmiy jurnallar. – 2024.

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qator muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qator sahafaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].